

TARAQQIYOT TADQIQOTLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ: ПЕРСПЕКТИВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

DEVELOPMENT STUDIES: PERSPECTIVES ON SUSTAINABLE DEVELOPMENT

OLIMOVA Shahrizoda Odilxon qizi

Namangan davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo'nalishi 1-kurs talabasi

AMIR TEMURNING DIPLOMATIK ALOQALARI TARIXIGA OID

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Amir Temurning Yevropaning Fransiya, Angliya, Kastiliya kabi yirik qirollar bilan savdo va diplomatik aloqalari tarixiga oid ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Diplomatiya, Angliya, savdo, diplomatik aloqalar, Kichik Osiyo, Genuya, Amir Temur.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется история торговых и дипломатических отношений Амир Темура с крупнейшими королевствами Европы, такими как Франция, Англия и Кастилия. Рассматриваются дипломатические миссии, экономическое сотрудничество и геополитические интересы эпохи Тимуридов.

Ключевые слова: Дипломатия, Англия, торговля, дипломатические отношения, Малая Азия, Генуя, Амир Темур.

ANNOTATION

In this article analyzes the history of Amir Temur's trade and diplomatic relations with major European kingdoms such as France, England, and Castile. It examines diplomatic missions, economic cooperation, and the geopolitical interests of the Timurid era.

Keywords. Diplomacy, England, trade, diplomatic relations, Asia Minor, Genoa, Amir Temur.

Amir Temur jahon tarixida qudratli va gullab yashnagan davlat barpo etgan buyuk sarkarda va buyuk davlat arbobi sifatida ma'lum. Shu bilan birgalikda Amir Temur tarixda o'z davrining mohir diplomati sifatida ham chuqur iz qoldirgan. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Fransiyada Amir Temur shaxsiga bolgan qiziqish katta bo'lib, ular Sohibqiron va u asos solgan buyuk sulola tarixini yoritishda faqat harbiy yurishlari va amalga oshirilgan ishlar solnomasini tuzish bilan. cheklanmasdan, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy va manaviy mafkuraviy muhitni hamda Amir Temurga va uning avlodlariga xos sof insoniy fazilatlarini, ularning davlat, jamiyat, din va ilm-fanga bo'lgan munoabatni ham atroflicha tadqiq qilishga alohida e'tibor beradilar [1].

Sohibqiron Amir Temur xalqar va mamlakatlarni bir-biri bilan bog'lashga ulkan hissa qoshdi. U Yevropaning Fransiya, Angliya, Kastiliya kabi yirik qirollar bilan savdo va diplomatik aloqalar o'rnatdi. Sohibqiron buyuk davlat arbobi sifatida o'z maqsadlariga erishishda avvalo diplomatik munosabatlarga e'tibor qaratgan. Amir Temur barpo etgan buyuk saltanat o'sha davrda nafaqat, qo'shni mamlakatlar va ularning podsholarini balki uzoq yurtlar hukmdorlarini ham oziga jalb etgan. Tarixiy hujjatlar dalolat berishicha XIV asrning 70-yillaridayoq Yevropa davlatlari vakillari Movorounnahrda kelib, bu yerda tashkil topgan yangi mustaqil davlatning qudrati va salohiyati bilan tanisha boshlaganlar.

Sohibqiron bobomiz hukmronligining keyingi yillarida Fransiya qiroli Karl VI (1380-1422) Angliya qiroli Genrix IV (1399-1413) Kastiliya va Lion qiroli Genrix in de Trastamara (1390-1407) lar bilan diplomatic aloqalar oʻrnatib yozishmalar olib boradi. Fransiya fuqarolari hisoblangan genuyaliklarning yer va mulklarini ayniqsa, Gʻalatadagi mustamlakalarini himoya qilish uchun Karl V oʻz navbatida Amir Temurdan yordam kutar va u bilan diplomatik aloqalar oʻrnatishga urinardi.

Amir Temur Boyazid bilan boʻlajak toʻqnashuvda Trapezund va Kanstantinopolning harbiy kemalaridan foydalanishga harakat qiladi. Shu maqsadda u Genuya va Venetsiyaga sovgʻa - salomlar hamda maktublar bilan elchi yuboradi. Oʻzaro yordam masalasida Amir Temur Konstantinopol noibi Ioann VII Paleolog bilan ham yozishmalar olib boradi. Amir Temurning 1402-yil 15-may kuni Ioann VII Paleolog nomiga yoʻllangan javob maktubi mazmuniga qaraganda Kanstantinopol noibi va Genuyaning Peradagi hokimi Boyazidga qarshi kurashda Amir Temurga xizmat qilish, hatto ularga odamlar va har qaysisi 20 tadan 40 tagach harbiy kemalar bilan yordam berish majburiyatini oladilar. Buni Ispaniya elchisi Klavixio ham oʻz kundalik daftarida qayt etib oʻtadi [2].

Amir Temur va Karl VI yozishmalarida qayt etilishicha Sohibqiron qirolni qoʻllab-quvvatlaydi. Anqara yaqinida turklarning 160-ming kishilik qoʻshni ustidan qozonilgan buyuk gʻalabadan song Amir Temurning Gʻarbiy Yevropa davlatlari bilan bolgan aloqalarning mazmuni tubdan oʻzgaradi. Endilikda Amir Temur ular bilan boʻlgan aloqalarning mustahkamlanishiga va ozaro savdo-sotiq aloqalarini yoʻlga qoyish kabi masalalarga ahamiyat beradi. Amir Temur diplomatiyasining oziga xos tomonlaridan biri u oʻzining barcha murojaatlarida, hatto qatʼiy talab shaklida yozilgan nomalarida ham sharq diplomatiyasi tamoyillariga ham rioya qiladi.

Ayrim yurtlar hukmdorlarining qopol shaklda ba zi hollarda jahl va jaholat bilan yozilgan nomalariga Sohibqiron hamma vaqt oʻz fikrini aniq bayon qilgan holda madaniyat va odob bilan javob qilganini oʻsha davrdan meros boʻlib qolgan tarixiy xatlar orqali bilib olish qiyin emas. Amir Temurning Fransiya qiroli Karl VI gay oʻllagan maktubida "Salom va tinchlik eʼlon qilaman!" degan soz bitilgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Amir Temur 1402-yil yozida Fransiya va Angliyaga maxsus elchilar orqali Karl VI va Genrix IV nomlariga maktublar yoʻllaydi. Elchilar Parijga 1403-yil may oyida yetib boradilar. Elchilar ikki mamlakatning savdogarlari uchun erkin savdo munosabatlarini olib borishni taminlash va agar qiroh hamda gersoglar rozi boʻlsalar, bu erkin savdoni tegishli bitim yoki shartnoma bilan mustahkamlashni taklif etadi.

Shuning uchun ham Sohibqiron Amir temur Fransiya qiroli Karl VI ga yoʻllagan maktubida bu haqida quyidagilami alohida taʼkidlaydi: "Bundan keyin sining odamlaringiz bizning yoʻllarimizga va bizning kishilarimiz sizning oʻlkangizga otgan ajdodlarimiz davridagidek borib kelib. tursalar, sizning va bizning nomimiz hamma joyda olqishlab tursalar, mamlakatimiz savdogarlari uchun foyda keltirishsa kop xursand boʻlar edik. Shuni aytilish kerakki endi bizning yurtimizda savdogarlaringiz xavfsizligi taʼminlanadi" [3].

Fransiya qiroli Karl VI 1403-yil 15-iyunida Amir Temurga yoʻllagan javob maktubida malum boʻlishicha Amir Temur takliflari Fransiya tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilingan [4].

Xuddi Shu davrda Amir Temur Angliya qiroli Genrix IV bilan olib borilgan diplomatik munosabatlarda Gʻarbiy viloyatlar hokimi Mironshox faol qatnashdi.

Shimoliy Eron, Iroq, Tabriz va Sultoniyani oʻz ichiga olgan mulklar hokimi Mironshoh Amir Temurning keksayib qolgan davrda Gʻarbiy Yevropa hukmdorlarining diqqatlar-eʼtiborini oziga jalb etadi. Bu davrda u Yevropa davlatlari bilan ozaro savdo aloqalarini jonlantirish maqsadida xristian ruhoniylariga xayrixohlik bildirib, savdogarlarning daxlsizligini taʼminlash borasida chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Shu sababli gʻarvda Mironshoh tez orada kotolik dinining homiysi sifatida shuhrat qozonadi. Kastiliya (Ispaniya) qiroli Genrix III sharq bilan juda qiziqib qolgan edi. 1402-yil bahorida dastlab Ispaniya elchilari Amir Temurning Kichik Osiyodagi qarorgohiga yuboriladi. Elchilarga Amir Temur va Boyazidning kuch qudrati, boyligi va qoshining sonini bilish hamda ular qol ostida yashayotgan xalqlarning urf-odatlarini, dini va qonunlari haqida aniq maʼlumotlar toʻplash topshiriladi.

Sharq va G'arb davlatlarining elchilari qatorida Ispaniya elchilari ham Amir Temur tomonidan qabul qilinib, qirol nomiga yozilgan maxsus maktub va in omlar bilan kuzatiladi. Ularga qo'shib Amir Temur Muhammadqozi ismli vakilini ham Ispaniyaga elchi qilib yuboradi. Genrix III 1403-yilda Amir Temur huzuriga ikkinchi marta maxsus elchilarni yuboradi. Unga Klavixo boshliq qilib tayinlanadi. 1403-yil 27-mayda Ispaniyadan jo'nab ketgan elchilar Samarqandga keladilar. Ispaniya elchilari samarqandda Amir Temur tomonidan tantanovor qabul qilinib ularga katta e'tibor va zo'r hurmat ko'rsatdilar [5].

Klavixo boshliq Ispaniya elchilari 1404-yilning sentabr-noyabr oylarida Samarqandda bo'ladilar. Amir Temurning Xitoyga yurishi munosabati bilan boshqa ko'pgina davlatlarning elchilari bilan bir qatorda Ispaniya elchilari ham 1404-yilning 27-noyabrida Samarqanddan jonatib yuboriladi. Klavixo Ispaniyaga 1406-yilning mart otida qaytib keladi. Klavixoning safar tasavvurotlari "Buyuk Temur tarixi" va "Temur qarorgohi", "Samarqanddan sayohat kundaligi" nomlari ostida ispan tilida bir necha bor nashr qilinadi.

Xulosa qilib aytganda buyuk ajdodlarimizning eng muhim fazilatlaridan biri shuki u zot bundan olti asr avval davlatlararo manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, uzoq va yaqin xalqlar o'rtasida dostlik hamjihatlik rishtalarini mustahkamlash o'z saltanati yorqin istiqbolini ta'minlashning muhim omili ekanini teran anglagan.

Shu bois, Yevropa va Osiyoni bog'lashga xizmat qilgan ulkan ishlarni amalga oshirgan. Bir tomondan-Xitoy, Hindiston, ikkinchi tomondan- Fransiya, Ispaniya, Angliya va boshqa davlatlar bilan aloqa o'rnatgan va shu munosabatlarni mustahkamlashga intilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1 Amir Temur jahon tarixida. Toshkent, 1991. B. 55.
- 2 Borodin Sergey. Samarqand osmonida oduzlar. Toshkent, 2020. B. 67
- 3 Temur tuzuklari. Toshkent 1999.
- 4 Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent, "Sharq", 2000. B. 44
- 5 Mo'minov LM. A. Temur va temuriylar davri Toshkent, "Tan", 1996.